

O'zbek Tili Fonosemantikasiga Xos Xususiyatlar

Mamarasulova Maftuna Rustam qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fonosemantika sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda o'zbek tilshunosligidagi o'rni haqida so'z boradi. Fonosemantika sohasi tovush va ma'no munosabatini, tovushning ma'no anglatish xususiyati va so'z ma'nosiga ta'sir etuvchi belgilari o'zbek tili misollari yordamida tahlil etildi.

Kalit so'zlar: fonosemantika, fonostema, fonetik birlik, fonetik tarkib, tovush ramziyligi.

Til belgilar sistemasi bo'lib, uning qismlari o'zaro chambarchas bog'liqlikda va bir-biriga mos, mutanosib bo'ladi. Ularning mutanosibliigi tilni borliqqa, borliqning esa tilga moslashuvida yaqqol namoyon bo'ladi. Belgi erkinmi yoki yo'qmi, nomlash va ifoda jarayonida tushunchaning ahamiyati kabi bahslar bir necha asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Qadimgi davrlardanoq faylasuf tilshunoslar til belgisi tabiatiga xos bunday jihatlarga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Tilning eng kichik belgisi hisoblanmish fonemaning (tovush) so'z ma'nosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi kabi masala ham qadimgi yunon faylasuflari asarlarida uchraydi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning fikricha, "biz obyektlar nomini erkin tanlashimiz mumkin, ammo nomlash jarayoni tushunchaga xos va nutq tovushlariga xos xususiyatlar aloqadorligida yuzaga keladi. Ya'ni nutq tovushlari tezlik, ingichkalik, kattalik, yumaloqlik kabi ko'plab xususiyatlarga ega. Shuningdek, narsa va hodisalarda ham tez, yupqa, katta, yumaloq va hokazo sifatlar mavjud bo'ladi. Shunday qilib, tezlik, jadallik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlardan iborat nomlar tezlik bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni nomlaydi "nozik" tovushli nomlar "nozik" narsalarga mos keladi; "ulkan" obyektlarning nomlari "katta" tovushlardan tarkib topishi kerak"¹. Tilimizdagi barcha so'zlar ma'lum bir ma'noga ega. Ma'no faqatgina so'zlarning o'zida emas, balki ular tarkibidagi tovushlarda, ularning talaffuzida ham zohir bo'ladi. Undov va taqlid so'zlardagi tovushlarning ohangdorligi ma'lum mazmun va maqsadga ega. Til uchun bunday holatlar tasodifiy bo'lmay, tovushlarning ma'nodorligi bilan bog'lanadi. So'zning fonetik ma'no bildirishi uning lug'aviy, grammatik ma'nolaridan keskin farq qiladi. So'zning fonetik ma'nosi tahlili bilan fonosemantika sohasi shug'ullanadi.

Fonosemantika – fanlararo munosabatlar natijasi bo'lib, psixologiya, tarix, gnesologiya, antropologiya kabi ko'plab fanlardan ozuqa oladi. Tilshunoslikning aynana sistemaviy yo'nalishi uning lingvistik asosini ta'minlaydi. Yuqorida qayd etilganidek, tovushlar, ularning matndagi imkoniyatlari haqidagi dastlabki qarashlar Aflotun va Arastu yashagan davrlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda fonosemantika borasidagi qarashlar yanada rivojlanib bormoqda. Unga ko'ra, har bir tovush shunchaki emas, balki asosli ravishda yuzaga kelgan. L.Barlasning "Rus tili. Stilistika" asarida "M.Lomonosovning rus tili misolida **a** tovushi ulug'vorlikni, kutilmagan qo'rqinchni; **e, i, ю** tovushlari mayinlikni, yoqimlilikni, yig'loqilikni va kichik narsalarni; **я** yoqimlilikni, quvnoqlikni, mayinlik va moyillikni; **o, u, ы** qo'rqinch va kuchli narsalarni; **g'azab, hasad, hadiksirash** va **qayg'uni** anglatishi; **k, p, t, b, g, d** tovushlari to'mtoq, ma'nosiz so'zlarda qo'llanishini; **s, x, u, ch, r** talaffuzda jarangdor va shiddatkor, buyuk, baland, kuchli va ajoyib narsa va hodisalarni

¹ М.А. Флакман, Ю.Г. Седёлкина, Л.О.Ткачева, Фоносемантика: Опыт междисциплинарного исследования. Монография – М.: Мир науки, 2022. –

ifodalashi; **j, z, v, l, m, n** muloyim talaffuz etilishi va shuning uchun muloyim va yumshoq narsa, harakatlarni ifodalashi “²haqidagi fikrlarni qayd etadi.

Bu sohada rus tilshunos olimi S.V.Voronin keng tadqiqotlar olib borgan. S.V.Voronin fonosemantika sohasini tilshunoslikning alohida tarmog‘i sifatida shakllanishiga xizmat qilgan tilshunos olim hisoblanadi. Voronin o‘z tadqiqotlarida so‘zdagi tovush va ma’no o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ob’ektiv qonunlarning mavjudligi asosladi va fonosemantik tahlil usullarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u Sank-Peturburg fonosemantika maktabiga asos soldi.

Bu sohada diqqatga sazovor tadqiqotlar rus olimi A.P.Juravlyev, N.A.Pavlyuk tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular fonosemantik tadqiqotlar jarayoniga kompyuter imkoniyatlarini ham integratsiya qilgan. O‘zbek tilshunosligida E.Qilicheva, G.Yaxshiyeva hamda Z.Qobilovalarning ishlari diqqatga sazovor.

Fonosemantikaning muhim birligi fonostema hisoblanadi. Ushbu atama ilk bor J.Fyors tomonidan qo‘llangan bo‘lib, fonemalarning muayyan mazmun bilan bog‘lanuvchi tizimini tushunadi. Masalan, O.S.Axmanova inglizcha *sp-* fonostemasini misol qilib ko‘rsatadi: *spray, sprash, spout, sputter* kabilarda *sp-* fonostemasi o‘xshash mazmuniy yaqinlik ifoda eta olishi bilan umumiylik hosil qilishini ta’kidlaydi. So‘zning fonosemantik tusi uning fonetik tarkibi bilan belgilanadi. So‘zda yetakchilik qilayotgan, ya’ni asosiy so‘z ma’nosini shakllantirishda asos vazifasini o‘tayotgan fonetik birlik (ba’zan fonemaga teng) fonostema hisoblanadi. Ba’zi olimlarning qayd etishicha, “Fonostema shaklan fonema bilan teng bo‘lib, uni fonemaning yangi - keyingi bosqichdagi ko‘rinishi sifatida baholash lozim. Til statifikatsiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘z moddiy qobig‘ini o‘zgartirmay keyingi bosqichga ko‘tarish imkoni bor. Xususan, morfema – leksema – so‘z ierarxiyasida shaklan bir xil birliklarning uchrashi tabiiy hol. Fonostemalar fonologiyaning yuqori qatlami yoki alohida qatlam bo‘lib, fizik tovushning ma’noviy “yuk” olgan holati, ana shu qatlamning o‘rganish birligidir.”³

Fonostema hisoblangan tovush yoki fonetik birlikning ma’nosi so‘zga ham singib ketadi, ya’ni so‘zning atash ma’nosida yaqqol aks etib turadi. Natijada, so‘zning fonetik ma’nosi va semantikasi o‘rtasida ichki dialektik aloqa vujudga keladi.

Z.Kobiloba “O‘zbek tilining fonetik vositalari” nomli tadqiqotida ba’zi tovushlarning ma’nolarini tahlilini keltiradi. Xususan, *r* tovushiga ta’rif berar ekan, “Aflotun ko‘rsatib o‘tgan so‘zlarning o‘zbekcha variantida ham ko‘rinib turibdiki, bizning o‘zbekcha *r* tovushimiz ham qandaydir *tez, titroq, shiddatli, zo‘r, keskin* harakatni ifodalaydi”. Misol sifatida *abjir, ayirmoq, aksirmoq, varrak, gulduros, gursillamoq, yong‘r, pirpirak, chigirtk, shartta, sharshara, xurkak* kabi so‘zlarni keltirib o‘tadi. Shuningdek, *j* tovushi *jajji, bejirim, ixcham, yoqimli* kabi ma’nolarni shakllantirishga xizmat qilishi o‘zbek tilidagi *jinday, jajji, jimjiloq, jinqarcha, jikkak, jibljibon, jilg‘a, jimjima, jichcha, jig‘ildon, jo‘va* so‘zlari misolida: *o* tovushi esa dumaloq predmetlar nomida uchrashi *oy, bosh, sopqon, ko‘z soqqasi, soqqa, yong‘oq, tomchi, xol, qorin* kabi misollar bilan dalillangan.

Yuqorida misollardan ko‘rinib turibdiki, tovushlarning fonetik ma’nosi so‘zga singib ketadi. So‘zning fonetik ma’nosi va semantikasi o‘rtasida ichki dialektik aloqa vujudga kelib so‘zning fonetik motivlangan semantikasi yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, til birliklarining tovush tomoni va mazmun tomoni o‘rtasida ma’lum mutanosiblik mavjud. Bu xulosa falasadagi shakl va mazmun butunligi, mutanosinligi tamoyiliga tayandi. So‘zning fonosemantikasi uning butun fonetik tarkibi bilan belgilanadi. Fonetik tarkibda yetakchilik qilayotgan fonetik birlik anglatgan ma’no so‘zning umumiy ma’nosida yaqqol aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воронин, С. В. Основы фоносемантики [Текст] / С. В. Воронин. – СПб.: Ленанд, 2009. – 248 с.

² Т.Н.Асодов, Matn tilshunosligi: o‘quv qo‘llanma. Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2023.

³ Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари. Тошкент, 2008.

2. Журавлев, А. П. Фонетическое значение [Текст] / А. П. Журавлев. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1974. – 160 с
3. Sapir, E. A Study in Phonetic Symbolism / E. Sapir // J. of Experimental Psychology. – 1929. – Vol. 2. – № 3. – p. 225–238
4. Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари. Филол.фан. фалс...(PhD) дисс.автореф. Тошкент, 2008.
5. М.А. Флакман, , Ю.Г Седёлкина, Л.О.Ткачева, Фоносемантика: Опыт междисциплинарного исследования. Монография – М.: Мир науки, 2022. –
6. Т.Н.Asadov, Matn tilshunosligi: o‘quv qo‘llanma. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2023.